
AYRIM ISTE'MOL TOVARLARIGA NISBATAN BOJXONA BOJI NOL STAVKADA QO'LLANILISHI UZAYTIRILDI



Ayrim iste'mol tovarlariga nisbatan bojxona boji nol stavkada qo'llanilishi uzaytirildi

2023 yil 23 martda "Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-41-sonli Prezident farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko'ra, 2024 yil 1 yanvargacha O'zbekistonga olib kirishda bojxona bojining nol stavkasi qo'llaniladigan tovarlar ro'yxati tasdiqlandi.

Jumladan:

yogurt; paxta, ivigan sut yoki qaymoq, qatiq;

pishloq va tvoroglar;

yangi yoki quritilgan xurmo (finik), anjir, ananas, avokado, guava, mango va mangostin yoki garsiniya;

yangi olma, nok va behi;

bug'doy yoki javdardan tashqari g'alla donidan un;

kakao tarkibli shokolad va boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari.

Ma'lumot uchun: Prezident farmoniga asosan ilgari mazkur muddat 2023 yil 1 iyulga qadar edi.

Shoxrux Sobirov - Rishton tuman adliya bo'limi inson huquqlarini himoya qilish va huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish bo'linmasi bosh maslahatchisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-05 09:23:08